



**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA 2019 YIL YANVAR- SENTYABR  
OYLARI UCHUN SANOAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH SOHASINING  
ASOSIY KO'RSATKICHLAR**

Sanoat mahsuloti hajmi

9421,8 mlrd.so'mni,

sanoat ishlab chiqarish indeksi 102,5 % ni tashkil etdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 1632,0 mlrd.so'mni va o'sish sur'ati 106,8 % tashkil etdi.

Iste'mol tovarlarining jami sanoat ishlab chiqarish hajmadagi ulushi 17,3 % ni tashkil etdi.


Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – 23,9 %

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida respublika korxonalari tomonidan 9421,8 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 102,5 % ni tashkil etdi.

Mahsulotlar ishlab chiqarishning eng katta hajmi ishlab chiqaradigan (qayta ishlaydigan) korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan bo'lib, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 88,1 % tashkil etadi.

Sanoat ishlab chiqarishbing o'sishiga elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari ham munosib hissa qo'shdi, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 7,7 % tashkil etti.

**2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, % da**



● Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (indeks - 108,9 % )

● Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati) (indeks - 102,1 %)

● Elektr gaz, bug' bilan taminlash va havoni konditsiyalash (indeks - 101,7 %)

● Suv bilan taminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish (indeks- 106,9 %)




## **Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.**

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 301,0 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,2 % ni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo'yicha ohoktosh qazib olish hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 9,5 % ga, chaqiq tosh 86,3 % ga oshganligini kuzatish mumkun. Gaz kondensati 10,1 % ga, tabiiy gaz 2,5 % ga pa'sayishi kuzatildi.

### **TOG'-KON SANOATI VA OCHIQ KONLARNI ISHLASH MAHSULOTLARI**






## ISHLAB CHIQARADIGAN (QAYTA ISHLASH) SANOATI

2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 8297,6 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 88,1 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,8 % (2018-yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan 2,0 %) ni o'rta-yuqori texnologiyali 65,9 % (73,5 %), o'rta-quyi texnologiyali 6,9 % (4,4 %) va quyi texnologiyali 25,4 % (20,1 %) tashkil etdi.

### 2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi



● Yuqori texnologiyali  
● Quyi texnologiyali


● O'rta-yuqori texnologiyali

● O'rta-quyi texnologiyali

O'z navbatida ishlab chiqaradigan sanoatda o'tgan yilning mos davriga nisbatan, yumshoq bug'doy uni 0,7 % ga, bug'doy noni 11,5 % ga, yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa 1,3 % ga va karbonat dinatriya 2,9 % ga oshganligini va paxta tolasi, makaron mahsuloti o'tgan yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada pasayganligini kuzatish mumkin.




## ISHLAB CHIQARADIGAN (QAYTA ISHLASH) SANOATI





## ISHLAB CHIQARADIGAN (QAYTA ISHLASH) SANOATI

2018 yil yanvar-sentyabr  
ishlab chiqarilgan



### TEKSTIL MAHSULOTLARI




Fizik hajim indeksi  
111,3 %

2019 yil yanvar-sentyabr  
ishlab chiqarilgan



### FARMATSEVTIKA MAHSULOTLARI VA PREPARATLARI



Fizik hajim indeksi  
157,5 % da



**Yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

	<b>2019 yilda ishlab chiqarilgan</b>	<b>2018 yilda ishlab chiqarilgan</b>	<b>O'sish sur'ati, %</b>
<b>Paxta tolasi, t</b>	<b>25919,4</b>	<b>33180,0</b>	<b>78,1</b>
<b>O'simlik yog'i (tozalangan), t</b>	<b>7472,8</b>	<b>8036,9</b>	<b>93,0</b>
<b>Tozalangan guruch, t</b>	<b>2887,4</b>	<b>3772,0</b>	<b>76,5</b>
<b>Yumshoq bug'doy uni, t</b>	<b>57775,1</b>	<b>57381,2</b>	<b>100,7</b>
<b>Bug'doy noni, t</b>	<b>2082,8</b>	<b>1868,4</b>	<b>111,5</b>
<b>Makaron mahsuloti, t</b>	<b>819,1</b>	<b>2201,0</b>	<b>37,2</b>
<b>Yirik shoxli qoramollar uchin tayyor ozuqa, t</b>	<b>31291,2</b>	<b>30889,2</b>	<b>101,3</b>
<b>Aroq, ming.l. 100% spirt</b>	<b>2956,7</b>	<b>2955,1</b>	<b>100,1</b>
<b>Karbonat dinatriya, ming.t.</b>	<b>142,0</b>	<b>138,0</b>	<b>102,9</b>
<b>Polietilen, t.</b>	<b>276129,0</b>	<b>290876,0</b>	<b>94,9</b>
<b>Polipropilen, t.</b>	<b>72607,6</b>	<b>76388,9</b>	<b>95,1</b>

**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash  
va havoni konditsiyalash.**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 729,1 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 7,7 %) ni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish o'tgan yilning mos davriga nisbatan 9,6 % ga, issiqlik energiyasini ishlab chiqarish 2,6 % ga kamayishi kuzatildi.



## SUV BILAN TA'MINLASH, KANALIZATSIYA TIZIMI, CHIQINDILARNI UTILIZATSIYA QILISH.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 94,1 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,0 % ni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom ashyoni 20,9 % ga pasayganligi va oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarning 14,2 % ga, suvgaga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlarning 26,5 % ga, xafsiz bo'lgan chiqindilarni yig'ish xizmatlari 2,6 martaga oshganligi kuzatildi.

## ISTE'MOL TOVARLARNI ISHLAB CHIQARISH

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 1632,0 mlrd.so'mni o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 6,8 % ni tashkil etti va jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 17,3 % ni tashkil etdi.

### 2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari, % da






## ISTE'MOL TOVARLARINI ISHLAB CHIQARISH

2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 838,7 mlrd.so'mni tashkil etib, jami iste'mol tovarlaridagi ulushi 51,4 %, nooziq ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 682,5 mlrd.so'm, jami iste'mol tovarlaridagi ulushi 41,8 %, alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish 110,8 mlrd.so'm hisoblanib jami iste'mol tovarlaridagi ulushi 6,8 % tashkil etdi.


### 2019 YILNING YANVAR-SENTYABR OYLARIDA TUMANLARNING JAMI ISTE'MOL TOVARLARI ISHLAB CHIQARISH HAJMIDAGI ULUSHI, % DA

Respublika bo'yicha iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmida eng ko'p ulush Nukus sh. (respublika bo'yicha iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining 33,8 % ulushini) Xo'jayli (9,1%), To'rtko'l (8,8%), Beruniy (7,1%), Qo'ng'irot (6,7%). Shu bilan birga eng kam ulush Mo'ynoq (respublika bo'yicha iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining 0,9 %), Taxtako'pir (1,1%) va Qonliko'l (1,5 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.





**Hududlar bo'yicha 2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati.**




Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushni Kegayli tumani (125,0 %), Qo'ng'irot tumani (118,0 %), Chimboy tumani (114,2 %), Taxtako'pir tumani (107,9 %) tashkil etadi.

Shu bilan birga eng kam ulushi Nukus tumani (102,2 %), Xo'jayli tumani (102,3 %), Ellikqal'a tumani (103,0 %), To'rtko'l va Mo'ynoq tumanlari (103,6 %) xissasiga tug'ri keladi.



**Yirik va kichik biznes sub'ektlari tomonidan iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi, %**



**Chet el investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi**

Hisobat davrida xoriji investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 5678,6 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobat davrida xoriji investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumi ishlab chiqarishdagi ulushi 60,3 % ni tashkiletti.



**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining  
sanoatning umumiy hajmdagi ulishi, %**



- Xoriji investitsiya ishtirokidagi korxonalar
- Respublikaning boshqa korxonalari



- Xoriji investitsiya ishtirokidagi korxonalar
- Respublikaning boshqa korxonalari



### **HUDUDLARNING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI**

Toshkent shahrida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik gayta jihozlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hududda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Nukus sh (Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmining 65,3 % ulushini), Taxiatush tumani (7,3 %), Xo'jayli tumani (3,1 %), Amudaryo tumani (2,8 %) va Mo'ynoq tumani (2,7 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Shuning bilan birga eng kam ulush Taxtako'pir ( 0,5 %), Shumanay ( 0,5 %), Nukus ( 0,6 %), tumanlariga to'g'ri keladi.


### **2019 YILNING JANVAR-SENTYABR OYLARIDA HUDUDLARNING JAMI SANOAT ISHLAB CHIQARISH HAJMIDAGI ULUSHI, % DA**





Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi tahlili Nukus shahrida (19433,9 ming.so'm), Taxiatush (9460,4 ming.so'm), Mo'ynoq (8110,7 ming.so'm) tumanlarida o'rtacha respublika darajasi ko'rsatkichidan (5012,1 ming.so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.


**Hududlar bo'yicha aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishi, (ming.so'mda)**  
**(2019 yil yanvar-sentyabr oylari ushun)**





Respublika bo'yicha aholi jon boshiga o'rtacha istemol tovarlari ishlab chiqarish 868,2 ming.so'm bulgan holda Nukus shahrida 1741,7 ming.so'mni, Taxiatoш tumanida 1332,0 ming.so'mni, Xo'jayli tumanida 1212,8 ming so'mni tashkil qildi.

**Hududlar bo'yicha aholi jon boshiga  
istemol tovarlari ishlab chiqarishi, (ming.so'mda)**  
**(2019 yil yanvar-sentyabr oylari ushun)**





## **SANOAT ISHLAB CHIQARISHDA KICHIK BIZNESNING ULUSHI**


Hisobat davrida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 2252,5 mlrd.so'mlik sanoat mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobat davrida kichik biznesning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 23,9 % tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Shumanay va Ellikqal'a (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100%), Qorao'zak (99,99 %), Taxtako'pir (99,6%) tumanlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichkina ulush Nukus shahrida (7,7 %), Mo'ynoq (13,5 %), Taxiatsosh (14,8 %) tumanlarida kuzatildi.

### **HUDUDLAR BO'YICHA KICHIK BIZNESNING SANOAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISHDAGI ULUSHI, % DA**





## 2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida tayyor mahsulotlar, butlovchi qisimlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylastirish.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qisimlar va materiyallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi respublika sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning rivojlanishiga o'z tasirini kursatti, mazkur dastur doyirasida 3130,4 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lib, 253,5 mln. AQSH dollori mig'dorida mahalliylashtirilgan mahsulotlar eksport qilindi.

Mahalliylashtirilgan mahsulotlar hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,2 foyizga kamayishi kuzatildi.

## 2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida tayyor mahsulotlar, butlovchi qisimlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylastirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari

3202,2 mlrd.so'm

303,4 mln.doll.AQSH

Sanoat mahsulotlari

Mahsulotlar exporti

3130,4 mlrd.so'm

253,5 mln.doll.AQSH

● 2018 yil.


● 2019 yil.



**Foaliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalar.**

Bugungi kunda respublikada 2244 sanoat korxonalari foaliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ularning 621 tasin yangi sanoat korxonalari tashkil etadi. Yangi tashkil etilgan korxonalarning qariyib 55,4 % Nukus shahri, Beruniy, Amudaryo, Ellikqal'a va To'rko'l tumanlariga to'g'ri keladi.

**2019 yil 1 oktyabr holatiga foaliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalar soni, birlik**



Q.R Statistika boshqarmasi  
sanoat statistikasi bo'limi  
Aloqa telefoni: (61) 222-75-87